

XORAZM VILOYATIDAGI KORXONALAR VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2020-yil 1-mart holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.



**Mas’uliyati cheklangan
jamiyat
8816 ta**



**Oilaviy korxonalar
3143 ta**



**Unitar korxonalar
159 ta**

2020-yil 1-mart holatiga ko‘ra 20885 ta korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 22,8 foizga o‘sgan. Natijada, faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o‘tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3685 ta (22,9 %) ga o‘sgan hamda ularning umumiy soni 19726 tani tashkil etgan.



**Xususiy korxonalar
5405 ta**



**Aksiyadorlik jamiyati
29 ta**



**Boshqalar
94 ta**

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,8 % savdo, 16,9 % sanoat, 9,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 9,2 % qurilish, 6,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa hamda 23,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Qishloq, o'rmon va baliq
xo'jaligi**
9,8%



Sanoat
16,9%



Qurilish
9,2%



Savdo
26,8%



Tashish va saqlash
3,5%



**Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar**
6,6%



Axborot va aloqa
1,3%



**Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish**
2,2%




Boshqa turlar
23,7%




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Urganch shahri (4937 ta), Urganch tumani (2265 ta), Xiva shahri (1845 ta), Xiva tumani (1705 ta) va Xonqa tumani (1616 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobodzor (957 ta), Shovot (1042 ta) hamda Bog'ot (1108 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 19726 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3685 ta (22,9 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (%)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Urganch shahri (4549 ta), Urganch tumani (2130 ta), Xiva shahri (1755 ta), Xiva tumani (1558 ta) va Xonqa tumani (1587 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangibozor (931 ta), Shovot (974 ta) hamda Bog'ot (1041 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yil yanvar-fevral oylarda 1329 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,8 foizga kamdir. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Urganch shahri (218 ta), Yangibozor (145 ta), Gurlan (134 ta), Qo'shko'pir (128 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Shovot (47 ta), Hazorasp (64 ta), Xiva (70 ta), Bog'ot (90 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020-yil yanvar-fevral oylarda yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar-fevral oylarda yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, (%)
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (372 ta), sanoat (317 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (309 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (85 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (17 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (29 ta) hamda tashish va saqlash (32 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra 16646 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 5074 ta, oilaviy korxonalar - 2985 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 8330 ta va boshqalar 257 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16553 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 27,5 % ga oshgan.


Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	<i>shundan:</i>	
		Kichik korxonalar	Mikrofirmalar
Xorazm viloyati	16553	936	15617
Urganch sh.	3856	324	3532
Xiva sh.	1622	55	1567
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	811	41	770
Gurlan	1060	64	996
Qo'shko'pir	1043	32	1011
Urganch	1854	131	1723
Hazorasp	1134	57	1077
Xonqa	1334	77	1257
Xiva	1346	38	1308
Shovot	739	48	691
Yangiariq	994	32	962
Yangibozor	760	37	723

2020-yil 1-mart holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi, (%)


(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya‘ni 3856 tasi (23,3 %) Urganch shahri, 1854 tasi (11,2 %) Urganch tumani, 1622 tasi (9,7 %) Xiva shahri hamda 1346 tasi (8,1 %) Xiva tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.










Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 16553 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5279 ta (31,9 %) - savdo, 3301 ta (19,9 %) - sanoat, 1784 ta (10,8 %) - qurilish, 1893 ta (11,4 %) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 1271 ta (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 688 ta (4,2 %) - tashish va saqlash, 367 ta (2,2 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 237 ta (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1733 tasi (10,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (%)**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar-fevral oylarda 1313 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 68 taga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (216 ta), Yangibozor (144 ta), Gurlan (133 ta), Qo'shko'pir (126 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shovot (47 ta), Hazorasp (61 ta) hamda Xiva (68 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2020-yil yanvar-fevral oylarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (%)
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 23,5%		Tashish va saqlash 2,4%
	Sanoat 24,1%		Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 6,5%
	Qurilish 5,3%		Axborot va aloqa 1,3%
	Savdo 28,3%		Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 2,2%
	Boshqa turlar 6,4%		

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 372 ta, sanoat 316 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 309 ta, qurilishda 85 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 17 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 29 ta hamda tashish va saqlashda 32 ta tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra ko'ra 3143 tani tashkil etib, ulardan 2985 tasi yoki 95,0 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 90,2 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalar soni, birlikda



Oilaviy korxonalar soni to'g'risida ma'lumot, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda



**2020-yil yanvar-fevral oylarda yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Xorazm viloyati	561	100,0
Urganch sh.	53	9,4
Xiva sh.	62	11,1
<i>tumanlar:</i>		
Bog‘ot	39	6,9
Gurlan	40	7,1
Qo‘shko‘pir	62	11,1
Urganch	36	6,4
Hazorasp	15	2,7
Xonqa	74	13,2
Xiva	18	3,2
Shovot	14	2,5
Yangiariq	64	11,4
Yangibozor	84	15,0

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Yangibozor (84 ta), Xonqa (74 ta), Yangiariq (64 ta) tumanlari va Xiva shahri (62 ta) hissasiga to‘g‘ri keladi. Aksincha, Shovot (14 ta), Hazorasp (15 ta), Xiva (18 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko‘rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020-yil yanvar-fevral oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (%)



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
25,1%



Sanoat
29,9%



Qurilish
0,2%



Savdo
26,6%



Tashish va saqlash
0,4%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
10,3%



Axborot va aloqa
0,4%



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
1,6%




Boshqa turlar
5,5%

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,9 % yoki 168 tasi sanoat, 26,6 % yoki 149 tasi savdo, 25,1 % yoki 141 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10,3 % yoki 58 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 1,6 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,4 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,2 % yoki 1 tasi qurilish hamda 5,5 % yoki 31 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-mart holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 150 tani tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan 68 taga yoki 82,9 % ga o‘sgan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Urganch shahrida 44 ta (jamidagi ulushi 29,4 %), Urganch 19 tani (12,7 %) va Xiva shahrida 13 ta (9,3 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Yangiariq 6 ta (4,0 %), Qo‘shko‘pir 6 tani (4,0 %), Gurlan 7 ta (4,7 %) hamda Yangibozor 8 ta (5,3 %) tumanlarida tashkil etgan.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma‘lumot, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning 92 tasi qo‘shma, 58 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, (%)



**Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo‘shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Xorazm viloyati	150	92	58
Urganch sh.	44	30	14
Xiva sh.	14	9	5
<i>tumanlar:</i>			
Bog‘ot	8	7	1
Gurlan	7	6	1
Qo‘shko‘pir	6	4	2
Urganch	19	5	14
Hazorasp	8	2	6
Xonqa	9	5	4
Xiva	11	5	6
Shovot	10	8	2
Yangiariq	6	4	2
Yangibozor	8	7	1

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil yanvar-fevral oylarda xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 16 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 taga ko'paygan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Urganch shahar (8 ta yoki jamiidagi ulushi 50,0 %), Xiva shahar (3 ta yoki 18,8 %) va Urganch (2 ta yoki 12,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xonqa (1 ta yoki 6,2 %), Hazorasp (1 ta yoki 6,2 %) va Yangibozor (1 ta yoki 6,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


2020-yil yanvar-fevral oylarda yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Turkmaniston rezidentlari kapitali ishtirokida 5 ta, Rossiya - 2 ta, Turkiya - 4 ta, AQSh da - 1 ta, Shveysariyada - 1 ta, Eronda-1 ta, Qozog'istonda-1 ta va Koreyada-1 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 4 ta savdo, 4 ta qurilish, 2 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2 ta sanoat, 2 ta yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 1 ta sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 1 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-fevral oylarda yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (%)



- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlar

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
(62) 224-65-11